

YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH SHAROITIDA QISHLOQ XO'JALIGI YERLARIDAN FOYDALANISH TIZIMINING IMKONIYATLARI VA SHART- SHAROITLARI

Qurbonquliyev Kamronbek Anvarovich

Buxoro davlat texnika universiteti 2-kurs talabasi

Jahonda jami yer maydonining 38 foizidan ortig'i qishloq xo'jaligida foydalanilmoqda. Bu yerlar asosan ekin ekish va chorvachilik uchun ishlatiladi. Dunyo bo'ylab qishloq xo'jaligida foydalanilayotgan yerlarning umumiy maydoni 4,89 milliard gektarni tashkil etadi. Shundan 36% ekin maydonlari, qolgan 64% esa yaylov va chorvachilik uchun foydalaniladi. O'zbekistonda esa qishloq xo'jaligi yerlarining 60 foizidan ko'prog'i paxta va don ekinlariga ajratilgan. Shunday ekan mamlakatdagi qishloq xo'jaligidagi yerlardan foydalanishni tartibga solish asosiy vazifalarimizdan bo'lib qolmoqda.

Aholi sonining o'sishi, yer, suv va energiya resurslariga bo'lgan talabning oshishi, shuningdek iqlimning keskin o'zgarishi oziq ovqat xavfsizligiga ta'sir etuvchi omillardir. Oziq ovqat xavfsizligini ta'minlashning asosiy yo'nalishlaridan biri qishloq xo'jaligini rivojlantirish va yer resurslaridan foydalanish tizimini modernizatsiya qilish va takomillashtirish hisoblanadi.

So'nggi yillarda qishloq xo'jaligi yer resurslaridan maqsadli va samarali foydalanmaslik, ularni tarmoq ichida va tarmoqlararo taqsimlash va qayta taqsimlashning samarasizligi, yerlar unumdorligining pasayib ketish holatlari kuzatilmoqda.

Bu turdagi muammolarga samarali yechim topish va uni amamlga oshirish uchun aynan qishloq xo'jaligida yer resurslaridan samarali foydalanuvchi va ushbu yo'nalishda modernizatsiya qilish rivoj topgan mamlakatlar tajribasidan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Qishloq xo'jaligida resurslardan foydalanishni va shuningdek, yer resurslaridan samarali foydalanishini rivojlantirish borasida ko'plab xorijlik va yurtimiz olimlari o'z izlanishlarini olib borgan bo'lib, bunda tarmoqni rivojlantirish uchun aynan xorij tajribalarini o'rganish va amaliyotga joriy etishning o'rni haqida o'zlarining ilmiy fikr – mulozalarini yuritib, tahlillarni amamlga oshirgandir.

Yerdan foydalanishning aniqroq tushunchasini S.Tkachuk "Yerdan foydalanish bu-tabiat qonunlari bilan hamohang tarzda iqtisodiy qonunlardan ongli asosda foydalanish bilan ob'ektiv rivojlanadigan yer resurslaridan foydalanishning ijtimoiy-iqtisodiy shakllari va ishlab chiqarish usullarining yig'indisidir" deb ifodalaydi.

Biz ushbu maqolada statistik ma'lumotlar tahlili, analitik tahlil va qiyosiy tahlil usullaridan foydalangan holda yurtimizda yer resurslaridan foydalanish tizimi va uning samaradorligini oshirishda xorijiy mamlakatlar tajribalaridan samarali foydalanish borasida tadqiqotlar olib borilmoqda. Bunda bir necha xorijiy mamlakatlar

yer munosabatlarini tartibga solish mexanizmi bilan yaqindan tanishib chiqib ushbu mamlakatlar tajribasidan mamlakatimiz yer resurslaridan foydalanish tizimini yanada rivojlantirish uchun foydalanishga taklif etishni maqsad qilib olinmoqda.

Natija va muhokamalar

Jahon bo'yicha aholi jon boshiga to'g'ri keladigan o'rtacha haydaladigan yer maydoni 0,3 gektarni tashkil etadi. Shu jumladan AQSH da bu ko'rsatkich 0,79 gektarga, Kanadada 1,79 gektarga, Xitoyda 0,09 gektarga, Yaponiyada 0,03 gektarga tengdir.

Hozirgi kunda ko'pgina yer bozori rivojlangan mamlakatlarda barcha mulkchilikni, xususan yer mulkdorlarining huquqlarini himoya qiluvchi qonunlar qabul qilinmoqda. Ushbu qonunlar asosida yerlarni erkin tarzda sotish va sotib olish mumkin.

Misol tariqasida AQShda hozirda fermer xo'jaliklari jami qishloq xo'jaligi yerlarining asosiy qismiga hususiy mulk sifatida mulkdor hisoblanishadi. Ushbu mamlakatda yer resurslaridan foydalanish, asosan, yuqori texnologiyali usullar bilan amalga oshiriladi. Mamlakatda qishloq xo'jaligi, sanoat va tog'-kon faoliyati uchun keng ko'lamli yerlar mavjud.


Biroq, resurslarni boshqarishda ekologik muvozanatni saqlashga qaratilgan ko'plab tashabbuslar mavjud. Mamlakatda fermerlar kichik va yirik guruhga ajratilgan. AQSH qishloq xo'jaligi vazirligida Davlat tuproq xizmati faoliyat olib boradi va tuproq unumdorligi holati monitoringini olib boradi uning tomonidan aniq yer uchastkalari uchun muayyan texnologiyalar ishlab chiqilgan. Shunga asoslangan holda fermer xo'jaliklari tuproq unumdorligi borasida qayg'urmaydi, balki taqdim etilgan aniq tavsiyalar va texnologiyalar asosida kredit oladi va sug'urta qilinadi.

Ayrim mamlakatlarning (Belgiya, Daniya) qonunchiligida ijaraga beruvchilar tomonidan ijara shartnomalarini ko'rib chiqish mumkin bo'lgan aniq muddatlari belgilab qo'yilgandir; yer maydonlarini sotib olish va uni ijaraga berish ijaraga beruvchilarning ustuvor huquqlaridan biridir. Xususiy mulkchilik va ijara erga uzoq muddatli egalik qilish huquqining asosiy shakllari bo'lsada, taqqoslab ko'rilganda ularning nisbati turlichadir. Masalan, Buyuk Britaniya, Germaniya va Shvetsiyada asosan xususiy mulkchilik rivojlangan bo'lsada, yerga uzoq muddatli egalik qilish huquqi ham keng tarqalgandir.

Uzoq muddatli ijara Buyuk Britaniyada ham ko'p tarqalgan bo'lib, hatto ijara muddatini chegaralovchi qoidalar ham belgilanmagan. Ijara huquqi sotilishi va garovga qo'yilishi mumkindir. O'zbekistonda ham yer ijarasi munosabatlarini yanada kengaytirish, uning samarali uslublarini joriy qilish orqali qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanish tizimini erkinlashtirishning iqtisodiy mexanizmini shakllantirish lozim.

Ayniqsa, fermer xo'jaliklari bilan tuziladigan yer ijarasi shartnomasini tanqidiy ko'rib chiqish lozim, uning ijrosi yuzasidan yuzaga keladigan kelishmovchiliklarni suda yoki boshqa organlarda ko'rib chiqish jarayonlarini soddalashtirish zarur.

Yuqorida sanab o'tilgan xorijiy mamlakatlarda yer munosabatlarini tartibga solishning tamoyillari O'zbekiston uchun ham dolzarb bo'lib, bozor iqtisodiyoti sharoitida yer munosabatlarini tartibga solish borasida qonunlar ishlab chiqishda va amaliyotda iqtisodiy tadbirlar ishlab chiqishda foydalanish mumkindir.



1-rasm.Yerdan foydalanish tizimi iqtisodiy mexanizmining tarkibi va bosqichlar (7b).

Bunday sharoitda ushbu muammoni yechishning eng muhim yo'nalishlaridan biri, bizningcha, iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishini ta'minlaydigan yer resurslaridan foydalanish yuzasidan iqtisodiy jarayonlarni davlat tomonidan tartibga soluvchi tizimni shakllantirishdir. Bizningcha, yer resurslaridan foydalanishni iqtisodiy tartibga solish yer resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish va rag'batlantirishga qaratilgan iqtisodiy mexanizm tarkibi va bosqichlari yig'indisini o'z ichiga oladi (1-rasm).

Demak, yer resurslaridan foydalanish tizimining iqtisodiy mexanizmi nazariy jihatdan yerning o'ziga xos xususiyatlari, yerga bo'lgan mulkchilik munosabatlarining o'zgarishi, yerning qiymati, yer solig'i, yer ijarasi va yer rentasi kabi jarayonlarning o'zaro yaxlitligini nazarda tutadi. Ularning har birini o'zaro bog'liqlikda tahlil qilish yer resurslaridan foydalanish tizimining iqtisodiy mexanizmini asoslashda muhim omil bo'lib xizmat qilishi bilan birgalikda yer resurslaridan foydalanish tizimini erkinlashtirishda qaysi iqtisodiy usullardan qanday foydalanish yuqori samaradorlikni ta'minlashda ustuvor ahamiyatga egaligini belgilashda ham yordam beradi.

Xulosa

O'zbekiston sharoitida jahonning ayrim rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarida yerga egalik qilish tizimining ijobiy jihatlaridan – ayrim rivojlangan davlatlardagi yerlardan foydalanishni rejalashtirish, turli xil ixtisoslashuvga ega fermer xo'jaliklari yer maydonlarining maksimal va minimal o'lchamini belgilab qo'yish, yer ijarasi munosabatlarini yanada kengaytirish, uning samarali uslublarini

joriy qilish, xorijiy fuqarolar, jismoniy va yuridik shaxslarning yerlardan, xususan qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan foydalanishi faqat ijara huquqi shartlari asosida amalga oshirilishi yuzasidan tajribani O'zbekistonda ham joriy qilish lozimligini.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. <https://www.fao.org/statistics/highlights-archive/highlights-detail/land-statistics-2001-2022.-global--regional-and-country-trends/en>
2. Ткачук С.А. Управление земельными ресурсами (Вопросы общей теории): Учебное пособие. – Целиноград, ЦСХИ, 1986. – 92с. С.11.
3. A.S.Altiyev, "Yer resurslaridan foydalanish tizimini tartibga solish muammolari": Monografiya-Toshkent 2018-234b
4. Usmanov Yu.A. "Degradatsiyaga uchragan sug'oriladigan yerlarni tiklash va foydalanishga kiritish mexanizmlarini takomillashtirish": Monografiya-Toshkent 2024-156 b.
5. www.priroda.ru
6. www.forbes.ru. Куст Г. Земля, погубленная за наш счет.
7. Safiyeva N.N, "Qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanish tizimini modernizatsiya qilishni takomillashtirish": Jurnal "Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil" 5-son. 2023-7b